



FAVORITE CHARACTERS IN THE WORKS OF GAFUR GULOM (BASED ON THE ANALYSIS OF LITERARY SCHOLAR SALOHIDDIN MAMAJONOV'S BOOK "THE POET AND MODERNITY")

Sodiqova Dilshoda Raimqul qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
(ToshDO'TAU), Master's Degree

Field: Literary Studies — Theory of Literature

Email: sodiqovad905@gmail.com

Phone: +998931371798

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19724357>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 22nd April 2026

Online: 23rd April 2026

KEYWORDS

G'afur G'ulom, Salohiddin Mamajonov, "Time" poem, "Alisher" poem, system of images, historicity, poem genre, literary analysis, modernity, literary heritage.

ABSTRACT

This article discusses selected chapters of Salohiddin Mamajonov's book "Poet and Modernity", as well as the genre features of G'afur G'ulom's poetry, especially the poem genre, imagery-related characteristics, and his poems "Time" and "Alisher". In addition, it analyzes the issue of historicity and its artistic expression. The study highlights the comparison of historical reality with contemporary life in the poet's works, the interconnection between the past and the present, and the role of historical facts in revealing artistic ideas.

G'AFUR G'ULOM IJODIDA SEVIMLI OBRAZLAR (ADABIYOTSHUNOS SALOHIDDIN MAMAJONOV SHOIR VA ZAMONAVIYLIK KITOBI TAHLILI ASOSIDA)

Sodiqova Dilshoda Raimqul qizi

ToshDO'TAU magistratura

adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi yo'nalishi

sodiqovad905@gmail.com +998931371798

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19724357>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 22nd April 2026

Online: 23rd April 2026

KEYWORDS

G'afur G'ulom, Salohiddin Mamajonov, "Vaqt" she'ri, "Alisher" she'ri, obrazlar tizimi, tarixiylik, poema janri, badiiy tahlil, zamonaviylik, adabiy meros.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Salohiddin Mamajonovning "Shoir va zamonaviylik" kitobining ayrim boblariga, G'afur G'ulom ijodining poema janri, obrazlar bilan bog'liq xususiyatlar va "Vaqt", "Alisher" nomli she'rlariga to'xtaladi, bundan tashqari, tarixiylik masalasi hamda uning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir asarlarida tarixiy voqelikning zamonaviy hayot bilan qiyoslanishi, o'tmish va bugunning o'zaro bog'liqligi hamda tarixiy faktlarning badiiy g'oyani ochib berishdagi o'rni yoritiladi.



Har lahza zamonlar umrdek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,
Umrndan o'tajak har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.
G'. G'ulom

G'afur G'ulom ijodi o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning asarlarida xalq hayoti, zamon ruhi, insonning ichki kechinmalari va jamiyatlardagi o'zgarishlar chuqur aks etgan. Shoir ijodining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u hayotdagi oddiy voqealarni ham katta badiiy ma'no bilan tasvirlay olgan. Shu sababli uning she'rlari va dostonlarida uchraydigan obrazlar, ramzlar hamda takrorlanuvchi badiiy unsurlar alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Salohiddin Mamajonov o'zbek adabiyotshunosligida G'afur G'ulom ijodini chuqur va tizimli o'rgangan olimlardan biridir. U shoir ijodini yillar davomida keng tadqiq qilib, nomzodlik dissertatsiyasi, monografiyalar va bir qator ilmiy kitoblar yaratgan. Bu ishlar G'afur G'ulom badiiy olamini ilmiy asosda o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mamajonovning tadqiqotlarida shoir ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, uning zamon bilan bog'liqligi, obrazlar tizimi hamda janrlar rivoji atroflicha tahlil qilinadi. Ayniqsa, G'afur G'ulom asarlarida uchraydigan vaqt, mehnat, hayot va inson mavzulari olim tomonidan ilmiy asosda ochib beriladi.

Munaqqid G'afur G'ulom ijodini tahlil qilar ekan, avvalo shoirning ijodi zamon bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, G'afur G'ulom asarlaridagi har bir obraz ma'lum tarixiy

sharoit, ijtimoiy muhit va davr talablari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Shuning uchun ham shoir ijodidagi obrazlarni faqat badiiy vosita sifatida emas, balki uning dunyoqarashi va davrga munosabatini ifodalovchi muhim unsur sifatida o'rganish kerak bo'ladi.

Shoirning hayot bilan yaqin aloqada bo'lishi, zamona bilan birga yashashi va ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabati uning asarlaridagi obrazlarda ham ko'rinadi. Chunki shoirning qarashlari faqat asar g'oyasida emas, balki uning barcha qismlarida aks etadi. Shuning uchun asardagi har bir obrazni oddiy bezak sifatida emas, balki asarning muhim qismi sifatida tushunish kerak.

Har bir shoir ijodida ko'p takrorlanadigan va aynan o'sha shoirga xos bo'lgan obrazlar uchraydi. Masalan, G'afur G'ulom she'rlarida "tongotar", "vaqt", "quyosh", "dasturxon", "assalom", "kommunizm asri", "tarix sabog'i", "jabha bo'ylab" kabi obrazlar ko'p qo'llanadi. Bu obrazlar orqali shoirning davrni qanday tushungani, hayotdagi muhim voqealarga qanday qaragani bilinadi. Bu kabi obrazlar odatda hayot ta'sirida paydo bo'ladi. Har bir davr o'zining o'ziga xos obrazlarini yaratadi. Shu sababli G'afur G'ulom ijodidagi har bir obrazning paydo bo'lish tarixi va ma'lum bir davr bilan bog'liq ma'nosi bor. Ayrim obrazlar bir davrda muhim bo'lsa, keyinchalik o'z ahamiyatini yo'qotishi ham mumkin, deydi munaqqid. Masalan, munaqqidning takidlashicha, G'afur G'ulomning 30-yillarning boshlaridagi asarlarida "to'lqinlar", «jabha bo'ylab» kabi obrazlar ostida qishloq va shaharda va mafkura bilan bog'liq sinfiy kurash



kuchaygan davr tushunchasi ifodalaydi va bu obrazlar o'sha vaqtda ko'p qo'llanar edi. Ular boshqa shoirlar ijodida ham uchraydi. Hatto, Hamid Olimjon «Jabha bo'ylab» degan poema ham yaratadi. Mamlakatda bu kabi sinflar va sinfiy kurash tugatilgach, bu obrazlar o'z-o'zidan kun tartibidan tushib qoladi, deydi Mamajonov.

«Tongotar», «vaqt», «kommunizm asri» kabi obrazlar G'afur G'ulomning bir asaridan ikkinchisiga ko'chib yuruvchi, uzoq tarixga ega va chuqur ijtimoiy-falsafiy ma'noni tashuvchi muhim obrazlardir. Bular hayot taqozosi va shoirning voqelikka faol, o'ziga xos ravishda munosabati tufayli tug'ilgandir.

«Vaqt» obrazi G'afur G'ulom ijodiga 1930-yillarning boshlarida kirib kelgan. Bu obraz uning «Yalovbardorlikka», «Beviqor qor», «Hech qanday bir qo'rg'on bormikan, bolsheviklar qo'lga olmagan!», «Non», «Qalblarning mojarosi», «Diktatura», «Ko'k bo'sag'asida» kabi asarlarida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Buning sababi shundaki, G'afur G'ulom o'z davrida insoniyat tarixida muhim o'zgarishlar yuz berganini, ya'ni ijtimoiy tengsizlik va zulmga barham berishga intilgan yangi tuzum shakllanganini bevosita kuzatgan. U bu jarayonlarda shaxsan ishtirok etib, jamiyatdagi katta o'zgarishlarni chuqur his qilgan.

Shoir shu orqali taraqqiyotning tezlashishi, jamiyatning qisqa muddatda o'zgarib borishi va tarixiy jarayonlarning shiddatini anglashga harakat qilgan. Natijada «vaqt» obrazi uning ijodida muhim badiiy-falsafiy mazmun kasb etgan. Bu masala o'sha davr adabiyotida ham ko'plab ijodkorlar e'tiborini tortgan va keng yoritilgan mavzulardan biriga

aylangan. Salohiddin Mamajonov tahliliga ko'ra, G'afur G'ulomning «Vaqt» she'ri shoirning vaqt haqidagi qarashlari va fikrlarining eng muhim xulosasi, ya'ni yakuniy natijasi hisoblanadi. Bu asar oddiy she'r emas, balki chuqur ma'noga ega falsafiy asardir.

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga qiyos etgulik,

Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat

Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kaftgiri

Har borib kelishi bir olam zamon.

Koinot shu damda o'z kurrasidan

Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,

Yashab, umr ko'rib o'tguchilar bor:

Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam qimmat,

Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun,

Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.

Nurlar qadami-la chopgan sekundning

Barini tutolmas ayhannos ovoz..

Mamajonov fikricha, she'rning kuchi uning g'oyasida, fikrining aniqligida va mantiqiy izchilligida ko'rinadi. Har bir misra qisqa, lekin juda mazmunli yozilgan. Shu sababli ayrim satrlar hatto aforizm darajasiga chiqib ketgan. Ularni o'zgartirish yoki boshqacha aytish qiyin, chunki bu she'rning ta'sirini kamaytirib yuboradi. Munaqqidning ta'kidlashicha, bu darajadagi yuksaklikka erishishda davr



voqealari ham katta rol o'ynagan. Ya'ni jamiyatdagi tez o'zgarishlar, hayot sur'atining tezlashishi shoirni vaqt haqida chuqurroq o'ylashga undagan. Eng muhim jihat shundaki, G'afur G'ulom vaqtni faqat mavzu sifatida emas, balki hayotning eng muhim qoidalaridan biri sifatida tasvirlaydi. She'rda inson har bir lahzani qadrlashi, vaqtni bekorga o'tkazmasligi kerakligi g'oyasi ilgari suriladi, "Vaqt" she'rda keltirilgan barcha faktlar, dalillar va xulosalar bir markaziy g'oya — vaqtning qadr-qimmatini masalasiga xizmat qiladi. Shoir avval asarning birinchi qismida har bir lahzaning mohiyatini ochib beradi, ya'ni har bir on hayotda juda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu orqali u qisqa vaqt ichida ham muhim voqealar sodir bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqaradi.

Keyingi qismda esa G'afur G'ulom o'z xulosalarini tarixiy dalillar bilan mustahkamlaydi.

Reyxstag ustiga g'alaba tug'in
Qadashda otilgan jangchining o'qi
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas oliy
huquqin.

U sovet xalqining Oktyabr inqilobidan keyingi taraqqiyot yo'lini, erishgan yutuqlarini, Ikkinchi jahon urushidagi g'alabasini eslatadi. Bu misollar orqali shoir vaqtning qanday katta tarixiy jarayonlar bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi, deydi munaqqid.

Asarning oxirida esa yana asosiy fikrga qaytiladi — vaqtni qadrlash g'oyasi. Bu yerda muallif har bir lahzani behuda o'tkazmaslik, uni insoniyat foydasiga xizmat qiladigan ijodiy mehnat

bilan to'ldirishga chaqiradi. Munaqqid tahliliga ko'ra, G'afur G'ulom vaqt tushunchasini faqat "vaqt" so'zi bilan emas, balki uning turli sinonimlari orqali ham ifodalaydi: "fursat", "bir lahza", "bir on", "dam", "payt", "soniya", "bir zum" kabi so'zlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, u vaqtni predmet harakati orqali ham tasvirlaydi. Masalan, "soatning oltinga o'xshash harakati" yoki "yalt etgan umr" kabi ifodalar vaqtning o'tkinchiligi va tezligini yanada kuchliroq ochib beradi. Salohiddin Mamajonov fikricha, bu ifodalar shunchaki so'z takroridan qochish uchun emas, balki har bir tushunchaga eng mos, eng aniq badiiy shakl topish maqsadida ishlatilgan. Shu sababli "fursat" so'zi "bir zum" yoki "bir minut" bilan almashtirib bo'lmaydi, chunki u kengroq va chuqurroq vaqt oralig'ini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, Mamajonov talqinida bu she'rda vaqt obrazining turli ifodalanishi, tarixiy dalillar va badiiy tasvirlar bitta g'oyaga — vaqtning nihoyatda qadrli ekanini ko'rsatishga xizmat qiladi.

G'afur G'ulom poema janrida ham bir muncha ijod qiladi. Salohiddin Mamajonov tahliliga ko'ra, G'afur G'ulomning poema janriga murojaat qilishi tasodifiy emas, balki davr talabidan kelib chiqqan badiiy ehtiyoj edi. Shoir bu janr orqali zamondagi muhim voqealarni kengroq, chuqurroq va ta'sirliroq ifodalashga harakat qilgan.

Mamajonovning fikricha, G'afur G'ulom poemalarida asosiy e'tibor faqat voqeani aytib berishga emas, balki inson hayoti, xarakteri va ichki kechinmalarini ochib berishga qaratilgan. Masalan, "Ko'kan", "Egalari egallaganda", "Xitoydan lavhalar" kabi asarlarda jamiyatdagi yangi jarayonlar va odamlar



hayotidagi o'zgarishlar asosiy mavzu bo'lib xizmat qiladi. 30-yillar o'zbek adabiyotida poema janri ancha rivojlangan davr bo'lgan. Ko'plab shoirlar bu janrda ijod qilib ko'rgan, chunki hayotdagi o'zgarishlarni faqat qisqa she'r bilan emas, balki kengroq shaklda tasvirlash ehtiyoji paydo bo'lgan. Shuning uchun poemada epik (hikoya) va lirik (his-tuyg'u) elementlar birga ishlatilgan.

Munaqqidning ta'kidlashicha, poema janrida muhim voqealar va qahramonlarning ichki dunyosi yuksak badiiy tarzda beriladi. Unda muallifning voqealarga munosabati ham sezilib turadi. Biroq o'sha davrda yozilgan hamma poemalar ham bir xil darajada mukammal bo'lmagan. Ba'zilarida voqealar haddan tashqari cho'zilib ketgan, ba'zilarida esa badiiy chuqurlik yetishmagan. Bu esa poema janri hali shakllanish jarayonida ekanini ko'rsatadi. Yana bir jihat, Mamajonov tahliliga ko'ra, G'afur G'ulom ijodida poema janrining rivojlanishi bevosita o'zbek adabiyotidagi epik an'analar bilan uzviy bog'liq. Ya'ni mumtoz davrdagi doston, qissa va noma kabi janrlar keyinchalik yangi davr poeziyasining shakllanishiga zamin yaratgan. Mamajonov bu jarayonni shunday izohlaydi: klassik adabiyotda epik asarlar keng qamrovli voqealarni tasvirlash, qahramonlarni har tomonlama ochib berish va muhim ijtimoiy-ma'naviy g'oyalarni ilgari surish uchun asosiy vosita bo'lgan. Shu sababli o'sha davrda doston janri juda keng imkoniyatga ega bo'lib, unda qahramonlik, romantik va falsafiy yo'nalishlar birlashgan. Tadqiqotchining fikricha, shu epik an'ana 30-yillar adabiyotida yangi shaklda davom etgan. Bu davrda shoirlar,

jumladan G'afur G'ulom ham poema janriga murojaat qilib, hayotdagi yangi voqealarni kengroq qamrab olishga intilgan. Endi asosiy maqsad tarixiy yoki afsonaviy voqealarni emas, balki zamonaviy hayot, insonlar xarakteri va jamiyatdagi o'zgarishlarni tasvirlash bo'lgan. Shu bilan birga Mamajonov ta'kidlashicha, mumtoz davr adabiyotida yaratilgan dostonlarda ko'pincha qahramonlar tayyor holatda berilgan bo'lsa, yangi davr poemalarida esa inson xarakterining shakllanishi, uning ichki kechinmalari va hayotiy jarayondagi o'zgarishi asosiy o'ringa chiqadi. Bu esa G'afur G'ulom ijodida ham yaqqol ko'rinadi. 30-yillar adabiyotida yaratilgan poemalarda ham eski an'ana va yangi badiiy izlanishlar uyg'unlashgan. Natijada G'afur G'ulom kabi ijodkorlar klassik epik tajribadan foydalanib, uni zamonaviy mazmun bilan boyitgan. Shu sababli uning poemalari ham keng voqelikni qamrab olishi, ham chuqur badiiy umumlashmaga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Salohiddin Mamajonov talqinida mumtoz dostonchilik an'anasi va yangi davr poemachiligi o'rtasida uzviy davomiylik mavjud bo'lib, G'afur G'ulom ijodi shu rivojlanish jarayonining muhim bosqichlaridan biri sifatida baholanadi.

G'afur G'ulomning "Alisher" she'ri shoir ijodida tarixiy shaxslar obrazini yoritish orqali milliy tarix va madaniyatni anglashga xizmat qiladigan muhim asarlardan biridir. Bu she'r 1948-yilda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan yozilgan bo'lib, unda shoir tarixiy shaxs hayoti fonida o'zbek xalqining o'tmishi va madaniy taraqqiyotini ham aks ettiradi.



Hirod tongotarini tasavvur qilib,
Yigitlik umringning kamolin
ko'rdim:

Qarigan chog'laring qaro shomida
Xuroson o'lkasin zavolin ko'rdim.

G'afur G'ulom avval Alisher Navoiy ijodiga baho berar ekan, uning asarlarining kuchi xalq hayoti va ruhiga yaqinligida ekanini ta'kidlaydi. Shoir Navoiy haqida uzoq tarixiy tafsilotlarga berilmaydi, lekin qisqa badiiy lavhalar orqali katta tarixiy mazmunni ochib beradi. Masalan, to'rt misradan iborat parcha orqali Alisher Navoiy yashagan davrning umumiy manzarasi — yoshlikdagi tinch va osoyishta muhit hamda keyingi davrdagi siyosiy beqarorlik — juda ixcham, lekin ta'sirli tarzda ifodalanadi. Bu esa shoirning tarixiy voqelikni qisqa detallar orqali

chuqur ochib bera olish mahoratini ko'rsatadi.

Salohiddin Mamajonov ta'kidlashicha, "Alisher" she'rida yana bir muhim jihat bor — u tarixiy shaxs misolida butun xalqning madaniyati va tarixiy merosini ulug'laydi. Shu bilan birga, shoir tarixni faqat o'tmish sifatida emas, balki hozirgi zamon bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rsatadi. She'rning yana bir muhim jihati shundaki, G'afur G'ulom tarixiy faktlarga tayangan holda fikr yuritadi, lekin ularni oddiy bayon qilmaydi, balki badiiy xulosa chiqarish uchun xizmat qildiradi. Shu orqali o'quvchini tarixni mustaqil anglashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Salohiddin Mamajonov talqinida "Alisher" she'ri G'afur G'ulom ijodida tarixiylik, milliy g'urur va badiiy umumlashirish uyg'unlashgan muhim asarlardan biri sifatida baholanadi.

References:

1. Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963
2. G'ofur G'ulom. Biz seni olqishlaymiz. Toshkent: O'zadabiynashr, 1958
3. G'ofur G'ulom. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977